

MAJBURIY FANLAR

ONA TILI

1. Qaysi javobda payt bildiruvchi ravishlar qatori berilgan?

- A) har gal, allamahal, hanuz
- B) hamisha, allamahal, noiloj
- C) ertalab, bafurja, majburan
- D) jimgina, ertadan, buguncha

2. Qaysi javobda ilmiy uslubga oid gap berilgan?

- A) Muxbirimizning xabar berishicha,
yurtdoshlarimiz saylovda faol qatnashmoqda.
- B) Yomg'irdan keyin bulutlar orasidan quyosh
mo'ralab qaraydi.
- C) Fe'llar harakat va holat ma'nosini bildiruvchi
so'zlardir.
- D) Tadbir har oyning juma kunida o'tkazilishiga
ma'muriyat kafolat beradi.

3. Qaysi gapda ajratib ko'rsatilgan so'z aniqlovchi vazifasini bajargan?

- A) Bolalar yangi bog'da o'ynayotgan edilar.
- B) U eski ko'ylagining tugmasini olib, o'zini
tashlab yubordi.
- C) Har narsaga qiziqish – biz uchun eski odat.
- D) Yuzaki o'ylagan odam yutqazadi.

4. Chiziqcha bilan yoziladigan so'zlar qatorini belgilang.

- A) hayot//sevar, hech//qachon
- B) mol//dunyo, dum//dumaloq
- C) achchiq//tosh, har//vaqt
- D) ola//qarg'a, bir//tekis

5. Qaysi javobda berilgan so'zlar juftligi o'zaro ma'nodosh so'zlar hisoblanadi?

- A) adl – adil B) uzun – kalta
- C) olis – yaqin D) ranj – alam

6. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlarni toping.

- A) favvora, aloxida B) tassavur, inshoat
- C) dorboz, ravnaq D) maxtamоq, minnatdor

7. Qaysi gapda imloviy xatolik mavjud emas?

- A) Uy to'rida ilingan surat unga yoshligini eslatti.
- B) Suv yuziga suzub chiqgan baliqlarni ko'rdi.
- C) Ustoz abadiy tiriklikka erishkan avliyolar haqida so'zlab berdi.
- D) Biz ichki intizomga rioya qilishga majburmiz, hurmatli hamkaslar.

8. Qaysi gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z ko'chma ma'noda qo'llangan?

- A) Qizning bo'ynidagi munchoq shodasi uzilib har tomonga sochilib ketdi.
- B) Qiz shohi ko'ylagagini hilpiratib o'ynayotgan shabadaga yuzlarini tutib turardi.
- C) Ko'p og'iz bir bo'lsa, bir og'iz yengiladi.
- D) Cholning yuzi g'azabdan dir-dir titrar, uni urib yuborguday bo'lar edi.

9. Qaysi gapda tushum kelishigini tushirib qo'llash uslubiy jihatdan xato sanaladi?

- A) U kitobni o'qishga berilib ketganidan qorong'i tushganiga ham e'tibor bermasdi.
- B) Narsalarining ichidan o'zining nomiga yozilgan xatni topib oldi.
- C) Qarasak, bitta jonivor to'rni yirtib chiqib ketishga harakat qilar, ammo uddasidan chiqa olmas edi.
- D) Ertasi kuni mакtabga borganida kutubxonadan qushlar haqida yozilgan kitobni oldi.

10. Qaysi gapda vergulning qo'llanish qoidalariga amal qilingan?

- A) Bu fikrga qo'shilmadi balki, jon-jahdi bilan qarshi chiqdi.
- B) Bizga kitob, daftar, qalam, kerak.
- C) Biz bugun, albatta, g'alaba qozonamiz.
- D) Bu safar Nazira ham, Nodira ham, biz bilan, bordi.

MATEMATIKA

11. $\frac{21}{49} = \frac{x}{7}$ proporsiyaning x -noma'lum hadini toping.

- A) 3
B) 4
C) 2
D) 7

12. To'g'ri burchakli parallelepipedning bo'yisi, eni va balandligi mos ravishda 9 cm, 5 cm va 10 cm ga teng bo'lsa, uning hajmini (cm^3) toping.

- A) 450
B) 455
C) 435
D) 445

13. 9786 sonining raqamlari o'rnini almashtirib eng kichik sonni hosil qiling.

- A) 6987
B) 6789
C) 6879
D) 6897

14. n ning qanday natural qiymatlarida $\frac{18}{n}$ kasrning qiymati natural son bo'ladi?

- A) 3; 6; 9; 12; 15; 18
B) 1; 2; 4; 6; 8; 10
C) 1; 2; 3; 6; 9; 18
D) 1; 2; 4; 8; 16; 18

15. Son o'qida $-7,6$ dan katta va $8,4$ dan kichik bo'lgan nechta butun son mayjud?

- A) 15
B) 16
C) 14
D) 13


16. 32 soni 160 sonining qancha qismini tashkil qiladi?

- A) $\frac{1}{4}$
B) $\frac{2}{5}$
C) $\frac{1}{5}$
D) $\frac{1}{2}$

17. Tenglamani yeching:
 $(7 - x) - (3 - 2x) = -5 - 3x$

- A) 2,5
B) 2,25
C) -2,5
D) 2,25

18. Shaklning perimetrini hisoblang.



- A) 52
B) 57
C) 56
D) 58

19. Hisoblang: $9,75 + 2,3 + 6,72 - (+2,3) + (-(-0,25)) + (-6,72) - 10$.

- A) 1
B) -1
C) 2
D) 0

20. 2,5 sentner necha kilogrammga (kg) teng?

- A) 25
B) 2500
C) 250
D) 50

O'ZBEKISTON TARIXI

- 21.** General-mayor Sobir Rahimov 1945-yil 26-martda qaysi shaharni shturm qilishda halok bo'lgan?
 A) *Moskva* B) *Kursk* C) *Stalingrad*
 D) *Gdansk*
- 22.** Qadimgi davrning qaysi bosqichiga kelib O'rta Osiyoda jamiyat harbiy demokratiya tamoyillari asosida yashay boshladi?
 A) *temir asri* B) *bronza davri* C) *neolit*
 D) *eneolit*
- 23.** 1405-yil 18-mart kuni Samarqandni egallab, o'zini Movarounnahrning oliv hukmdori deb e'lon qilgan shaxsni toping.
 A) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
 B) *Mirzo Ulug'bek*
 C) *Sulton Husayn Boyqaro*
 D) *Xalil Sulton Mirzo*
- 24.** Ma'muniylar hukmronligi davrida Xorazmshohlar davlatining poytaxtiga aylangan shaharni toping.
 A) *Ko'hna Urganch* B) *Kat* C) *Xiva*
 D) *Tuproqqa'l'a*
- 25.** XIX asr o'rtalarida Xiva xonligida xon qarorgohi qaysi shaharda joylashgan?
 A) *Hazorasp* B) *Nukus* C) *Xiva*
 D) *Tuproqqa'l'a*
- 26.** "Shajarai Xorazmshohiy" asarining muallifini aniqlang.
 A) *Muhammad Yusuf Bayoni*
 B) *Hasanbek Rumlu*
 C) *Xudoyberdi Avaz Muhammad*
 D) *Shermuhammad Munis*
- 27.** 1557-1558-yillarda kimning hukmronligi davrida Buxorodan Moskvaga elchilar yuborilgan?
 A) *Ismoil Somoniy* B) *Abulg'oziyxon*
 C) *Abdullahxon II* D) *Amir Temur*
- 28.** 1997-yil xalqaro YUNESKO tashkilotining qarori bilan qaysi shaharning 2500 yilligi mamlakatimizda **keng** nishonlangan?
 A) *Shahrisabz* B) *Samarqand* C) *Xiva*
 D) *Qarshi*
- 29.** Qaysi shahar mil.avv. V asrda bunyod etilgan?
 A) *Toshkent* B) *Yangi Urganch*
 C) *Samarqand* D) *Xiva*
- 30.** Amir Temur vafotidan keyin mamlakatda boshlanib ketgan o'zaro kurash va isyonlarga chek qo'yib, 1409-yilda hokimiyatni o'z qo'liga olgan temuriyzodani aniqlang.
 A) *Husayn Boyqaro* B) *Shohrux*
 C) *Pirmuhammad* D) *Mironshoh*